

NEKROTOPONIMLARDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI
QORAQALPOG‘ISTON MISOLIDA

Yusupov San’at Shuxratovich

*Nukus DPI Ijtimoiy-gyumanitar fanlar kafedrasi
o‘qituvchisi.*

E-mail: sanatyusupov999@gmail.com

https://orcid.org/0009-0008-2428-485X

UDK: 81-114.4

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston hududida nekrotoponimlarga qo‘yilgan tarixiy shaxslar (antroponim) nomlari o‘rganilgan. Nekrotoponimlarning aynan nima sababdan tarixiy shaxs nomlari bilan atalganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: toponim, nekrotoponim, islom dini, antroponim, konversiya, transonimizatsiya.

Qoraqalpog‘iston hududidagi nekrotoponimlarga antroponimlardan nom ko‘chish xodisasi ko‘p uchraydi. Tarixiy shaxslar nomlarini nekrotoponimlarga ko‘chishi yoshi ulug‘, millat uchun jon kuydirgan, vatani rivojiga kata hissa qo‘shgan va adabiyot nomoyondalarining ismlarini nekrotoponimlarga qo‘yishlari shu yerlik xalqning milliyligi va yoshi ulug‘larni e‘zozlashlaridan darak beradi.

Geografik nomlar majmuining asrlar davomida boyib, takomillashib borishini ta‘minlovchi manbalardan biri – nomlarning bir-biriga o‘tishi hodisasi sanaladi. Bu xususiyat har qanday hududiy toponimiyaga va barcha tildagi geografik nomlarga xos. Joy nomlarining har bir guruhi (oykonimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqalar) o‘z ichida va o‘zaro bir-biriga o‘tishi mumkin”¹.

Toponimlarning ma‘lum qismi avliyolar, pirlar, mashhur afsonaviy shaxslar ismlari bilan bog‘liq. Mik, To‘rtchoriya, Bog‘mozor (ota), O‘smat ota, Novqa ota Novqa (Nayqat), Turot bobo, Avliyo ota, Shahid ota va boshqalar.²

Qoraqalpog‘iston hududida quidagi tarixiy shaxs nomlarining (antroponimdan) nekrotoponimga nom ko‘chish hodisalari uchraydi.

Ernazar olako‘z nekrotoponimi Mo‘ynoq tumanining “Qazaq daryo” OFYda joylashgan.

Nafaqat Mo‘ynoq xalqi balki butun Qoraqalpoq xalqi Ernazar olako‘zni hurmat qilishadi, eslashadi, ziyorat qilishadi. Ernazar Olako‘z (taxminan 1806—1856) — Xiva

¹ Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 98.

² Ahmedov. S. N, Jizzax viloyati toponimlarining semantik xususiyatlari, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferat, Samarqand – 2019

xonligida ko'tarilgan qoraqalpoqlar g'alayoni (1855—56) rahbari. U qoraqalpoqlarni Xiva xonligidan ajratib olish niyatida 1855-yil o'rtalarida Xiva xoniga qarshi g'alayon ko'targan. Amudaryoning o'ng sohilida Qoraqalpoq xonligini tuzib, Zorliq to'rani xon, o'zini esa unga bosh vazir deb e'lon qilgan. 1856-yil fevralda Xiva xoni Sayd Muhammadxon Xo'jayli yonida Ernazarga qattiq zarba bergan, Zorliqto'ra va Ernazar qatl etilgan. Ernazar olako'zning jasadini dafn qilingan qabriston Ernazar olako'z qabristoni deya ataladi.

Ajiniyoz bobo nekrotoponimi Mo'ynoq tumanining "Hakim ata" OFYda joylashgan. Qoraqalpoq xalqining shoiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li 1824 yilda Mo'ynoq tumanida tug'ilgan. Qoraqalpoq adabiyotining yirik siymolaridan biri. Ajiniyozni qoraqalpoq xalqi juda yaxshi ko'radi va sevib u yozgan she'rlarni yod oladilar. 1878 yilda Ajiniyoz olamdan o'tgandan keyin "Hakim ata" OFYda joylashgan qabristonga dafn qilinadi. Shu voqeadan keyin bu qabriston Ajiniyoz bobo qabristoni deb nomlangan.

Hakim ota nekrotoponimi Mo'ynoq tumanining "Hakim ata" OFYda joylashgan. Hakim ota- Sulaymon Baqirg'oniy

Sulaymon Baqirg'oniy 1122-yilda tug'ilib 1186-yilda vafot etgan. U Turkistonda Xo'ja Ahmad Yassaviy maktabida ta'lim olgan. Xo'ja Ahmad Yassaviy uni ko'p marotaba sinab ko'radi va uning shunchalik bilimli ekanligiga qoyil qoladi.

Sulaymon Baqirg'oniyni o'zining hikmatli so'zlarida Qul Sulaymon, Sulaymon, Hakim, Qul Hakim va Hakim Sulaymon tahalluslarini qo'llagan. Sulaymon Baqirg'oniy lirik she'rlar yozishdan tashqari epik asarlar ham yozib qoldirgan. Masalan, "Deydiyo", "Merojnoma", "Bibi Maryam", "Sobit qissasi" dostonlari shilar jumlasidandir. Hakim ota olamdan o'tgach shu qabristonga dafn qilinadi va bu qabriston nomi Hakim ota deya atala boshlaydi. Hozirgi kunda Mo'ynoqda Hakim ota ziyoratgohida keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Salmen ota nekrotoponimi XX asrning o'rtalarida o'z davrining belgili ulamolaridan biri bo'lgan Salmen Kamal o'g'lining ushbu yerga dafn qilingani bilan paydo bo'lgan. Salmen Kamal o'g'li 1886-yili eski Qora'zak tumanida taniqli ulamo Komil eshon oilasida tug'ilgan. Kamal eshonning otasi Qo'zi eshon Xiva va Buxoro madrasalarida bilim olgan. Onasi Zaynab taniqli Qoraqum eshonning qizi. Salmen Kamal o'g'li 1905-1914-yillarda Qoraqum eshon madrasasida keyin, Xiva madrasalarida bilim olgan, ovuliga qaytgandan keyin o'zi mecht ochib bollalarga ta'lim bergan. 1943-1952-yillarda Chimboy rayonida "Xon mechtida" imom-xatibi vazifasini bajargan. O'rta osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining Qoraqalpog'istondagi vakili bo'lgan. Dinga qarshi ateistik siyosatining qurboni

bo‘lib, birinchi marta Chimboy Nukus qamoqxonalariida o‘tirgan. 1952-yil 10-aprelda ayblanadi va mol-mulki davlat hisobiga o‘tkaziladi o‘zi esa, eng og‘ir jazoga ya’ni otish jazosiga hukm qilingan. 1952-yil 24-noyabr kuni Nukus shahrida jazoni o‘tayotgan paytida olamdan o‘tgan. 1952-yil 10-apreldagi qaror 1958-yil 1-aprelda asossiz deb topilib o‘limidan keyin oqlangan.

Salmen ota qabristoniga shuning uchun ham Salmen ota dafn qilinganligidan keyin uning nomi berilgan. Sababi yuqarida aytganimizdek o‘sha davrlarda mustaqillik, diniy erkinlik bo‘lmagan va oqibatda juda ko‘plagan Salmen otadek begunoh bobolarimiz jabr-zulmga duch kelgan. Salmen ata juda ham pok diniy va dunyoviy bilimga ega inson bo‘lganlar. Salmen otaning nomini abadiylashtirish uchun Qoraqalpoq xalqi Salmen ota dafn qilingan qabristonga uning nomini berishgan.

Dovut ota nekrotoponimi Qo‘ng‘irot tumanining “Adabiyot” OFYda joylashgan. Bu qabriston vujudga kelishiga sababchi inson payg‘ambar emas, aslida bizday oddiy inson bo‘lgan. Dovut ota 1787-1874-yillar oralig‘ida yashagan. Aslida tug‘ilib o‘sgan joyi Qozog‘istonning Oqto‘be viloyatida tug‘ilgan. Dovud ota Osov otaning o‘g‘li bo‘lgan, Osov ota esa Baraq otaning o‘g‘li bo‘lgan. Dovut ota aslida botir jangchi bo‘lgan o‘z qishlog‘ining biyi bo‘lgan. Qozog‘istonga ruslar bosqini davrida 420 oilani olib amudaryo bo‘ylariga kelgan. Dovut ota olamdan o‘tgach shu qabristonga dafn qilinadi va qabristonga Dovut ota nomi berilgan. Ushbu ma’lumotlar Qozog‘istonlik Mirzan Jetpisbayevning “Dav otovli Dovud” nomli asarida keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilganimizdek, o‘rganilgan hududdagi nekrotoponimlarga antroponimdan nom ko‘chishi uchraydi.

Tarixiy shaxs nomining nekrotoponimga ko‘chishi ushbu hududda yashovchi xalqning asrlar davomida shakllangan milliyligi, o‘ziga xosligi, an’anasi, qadriyati va dini haqida darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 98.
2. Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М., 1969. – С. 92-93.
3. Ганиев Т. Конверсия в татарском языке. – Казань, 1985. – С. 6
4. Turdibekov M.T. Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferat. Toshkent – 2022. - 19
5. Norov, I. (2023). DEFINITION OF ZOONYMS IN UZBEK ARTISTIC WORKS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(1), 1-6.

6. Yusupov, S. (2023). Use of Zonyms in Works. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*.
7. Oglu, I. N. K., & Oglu, F. K. I. (2021). Level of study of onomastic ethnonyms. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 487-493.
8. Shukhratovich, Y. S. (2022). STUDY OF NECRONYMS IN THE TERRITORY OF KARAKALPAKSTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 21, 101-104.